



UY MUZEYLARNING JAMIYAT HAYOTIDAGI O'RNI (RASSOM O'ROL
TANSIQBOYEV UY-MUZEYI MISOLIDA)

Shahzod Shomansurov Sharofiddin o'g'li

San'atshunos

Bugungi kunda madaniyat sohasining eng muhim yo'nalishlaridan biri — bu milliy merosni asrash va uni keng jamoatchilikka yetkazishdir. Shu jihatdan uy muzeylar madaniy xotirani saqlovchi, san'at va tarixni birlashtiruvchi muhim maskanlardir.

Uy muzeylar — bu mashhur ijodkor, rassom, yozuvchi yoki olimlarning yashagan joyida tashkil etilgan muzey bo'lib, ularning shaxsiy hayoti, ijodi, ishlagan muhiti va merosini namoyish etadi.

O'zbekiston hududida bunday muzeylar soni yildan yilga ortib bormoqda. Xususan, o'zbek rassomchilik maktabining yirik vakili O'rol Tansiqboyev

uy-muzeyi nafaqat san'at ahliga, balki keng jamoatchilik va yosh avlodga ham katta ilhom manbai bo'lib xizmat qilmoqda.

Uy muzeylar insoniyat madaniyatining ajralmas qismi hisoblanadi.

Ular nafaqat moddiy boyliklarni, balki ijodkor shaxsining ruhiy merosini ham saqlaydi. Bunday muzeylarning jamiyatdagi o'rni quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi;

Ma'naviy tarbiya vositasi sifatida – uy muzeylar yoshlarni san'at, madaniyat, tarixga hurmat ruhida tarbiyalaydi. Ular insonni o'z xalqining buyuk farzandlari bilan tanishtiradi, ijodga muhabbat uyg'otadi.

Madaniy merosni saqlovchi maskan sifatida – ijodkor yashagan muhit, uning ishlari, shaxsiy buyumlari tarixiy dalil sifatida avloddan-avlodga o'tadi. Turizmni rivojlantiruvchi omil sifatida – uy muzeylar madaniy turizmning muhim qismi bo'lib, mahalliy va xorijiy sayyohlarni jalb etadi.

Ilmiy-tadqiqot markazi sifatida – bu maskanlar san'atshunoslar, tarixchilar, talabalar uchun o'rganish manbai hisoblanadi. Demak, uy muzeylar jamiyatda nafaqat o'tmishni eslatadi, balki hozirgi va kelajak avlodni ham ma'naviy jihatdan boyitadi.

O'rol Tansiqboyev (1904–1974) o'zbek xalq rassomidir. U XX asr o'zbek tasviriy san'atining shakllanishida beqiyos hissa qo'shgan. Uning asarlarida O'zbekiston tabiati, xalqning mehnat hayoti, milliy ruh va tabiat go'zalligi asosiy o'rinni egallaydi.

Rassom "Jonajon o'lka", "O'zbekistonda mart", "Tog'dagi qishloq. Oqshom", "Farg'ona vodiysi", "Tog'larda tong" kabi ko'plab asarlar muallifi. Uning ijodida yorqin ranglar, tabiiylik va xalqona ifoda ustuvorlik qiladi.

Shuning uchun rassom merosini saqlash maqsadida tashkil etilgan uy muzeyi o'zbek tasviriy san'ati tarixida katta ahamiyatga ega.

O'rol Tansiqboyev uy-muzeyi Toshkent shahrida, rassom yashagan xonadonda tashkil etilgan. Muzeyda rassomning shaxsiy buyumlari, ijod qurollari, etyudlari, eskizlari, suratlari saqlanadi. Muzey ikki asosiy qismdan iborat:



Rassom yashagan xonadon qismi – bu yerda rassomning ustaxonasi, mehmonxona, yotoqxona, ijod xonasi shuningdek yaratgan asarlari, stol-stuli, mo'yxalamlari, palitrasi, shaxsiy yozuvlaridan iborat ekspozitsiyalar joylashgan.

Bu qism orqali mehmonlar rassomning ijodiy muhiti bilan bevosita tanishadilar.

Galereya (ko'rgazma zali) – ikki qavatli bo'lib, unda yigirmaga yaqin asar namoyish etilgan. Asosiy mavzu — manzara janri. Rassom O'zbekiston tog'lari, vodiylari, daryolari, dalalari tasvirida o'z yurti tabiatiga mehrini ifoda etgan. Shuningdek, muzeyda yosh rassomlar uchun mahorat darslari, ijodiy uchrashuvlar, ko'rgazmalar va ijodiy uchrashuvlar tashkil etiladi.

Uy muzeylar yosh ijodkorlar uchun ilhom va tajriba maktabidir. O'rol Tansiqboyev uy-muzeyida yoshlar san'at maktablari doirasida amaliy mashg'ulotlar o'tkazadilar. Rassom asarlari orqali rang, shakl, kompozitsiya sirlarini o'rganadilar, ustoz san'atkorning hayoti va mehnatidan ilhom oladilar, o'z ijodlarini baholash, namoyish etish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Bunday faoliyat yoshlarning badiiy didini rivojlantiradi, ularni mehnatsevarlik, milliy qadriyat va estetik go'zallikni anglashga o'rgatadi.

Bugungi kunda madaniy turizm O'zbekistonning muhim iqtisodiy yo'nalishlaridan biriga aylangan. Uy muzeylar turizmni boyituvchi omil sifatida xizmat qiladi, chunki ular mehmonlarga o'zbek madaniyatining jonli manzarasini ko'rsatadi. Tansiqboyev uy-muzeyiga nafaqat o'zbekistonliklar, balki xorijlik sayyohlar ham tashrif buyuradilar. Ular bu yerda o'zbek rassomlik san'atining o'ziga xos uslubi bilan tanishadilar. Shu bilan birga, muzey madaniyatlararo muloqotni rivojlantiradi, xalqaro ko'rgazmalar va san'at loyihalarida ishtirok etadi.

Uy muzeylar — bu xalqning madaniy xotirasi, milliy qadriyatlarining tirik guvohi va yosh avlod tarbiyasida bebaho vositadir. Shu bois, bunday muzeylarga e'tibor qaratish, ularni modernizatsiya qilish, yoshlar orasida targ'ib etish va xalqaro miqyosda tanitish bugungi madaniyat siyosatining muhim vazifalaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.O'zbekiston Respublikasi "Muzeylar to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2008.
- 2.“O'rol Tansiqboyev hayoti va ijodi” – San'atshunoslik maqolalar to'plami. – Toshkent, 2021.
- 3.O'zbekiston Badiiy akademiyasi rasmiy sayti ma'lumotlari.
- 4.“Tansiqboyev uy-muzeyi – ijod makoni” maqolasi, San'at va madaniyat jurnali, 2022.